

2020-yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yil yanvar-aprel oylarida Toshkent viloyati korxonalaridan 17 417,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 96,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 14,5 %, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 101,8 %, iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 5,0 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 0,1 % ga, qayta ishlash 5,2 % ga kamayishi, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohalarida 7,0 % ga o'sishi kuzatildi.

Yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



Ishlab chiqaradigan
sanoat



Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash



Suv bilan
ta'minlash, kanalizatsiya
tizimi, chiqindilarni
utilizatsiya qilish




Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

TOG'-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 781,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,5 % ni tashkil etdi.



2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, %
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, Indeksi %da		17 417,9	96,1
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash		781,6	100,1

shu jumladan:

Ko'mir va lignit qazib olish		220,5	97,0
Metal rudalarini qazib olish		453,6	100,3
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlashda xizmatlar		106,9	122,7

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

**Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari
(qayta ishlash sanoati)**

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2019-yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, %
Qayta ishlash sanoati		14 616,2	94,8

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish		1 839,6	77,7
To'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish		1 206,7	83,7
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish		167,8	77,2
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish		12,1	86,0

**Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari
(qayta ishlash sanoati)**

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, %
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish		6,3	40,7
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish		1 216,8	82,1
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish		23,4	130,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish		608,0	89,1
Metallurgiya sanoati		8 022,0	98,4
Avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hamda mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish		1 449,8	98,8


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 955,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,2 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, %
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash		1 955,6	105,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, %
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish		64,6	107,0

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi 2019-yil yanvar-aprelga nisbatan % da



Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish

190,6 %



O'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish

103,4 %



O'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish

98,6 %



Quyi texnologiyali ishlab chiqarish


96,8 %

Jami sanoat ishlab chiqarishida, qayta ishlash sanoati 83,9 % ulushiga ega bo'lib shu jumladan texnologik tarkibi bo'yicha yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 1,3 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 12,5 %ni, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 51,2 %ni, quyi texnologiyali ishlab chiqarish 18,9 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xalq iste'mol mollari

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2794,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 1,8 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 16,0 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sish sur'ati



2019-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 38,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 8,2 % ni (2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan 108,0 %) ni tashkil etdi.



2020-yil yanvar-aprel oylarida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari tarkibi va o'sish sur'ati

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 621,7 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. 2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan 100,6 % ga o'sishni ta'minladi.

2020-yil yanvar-aprel

2019-yil yanvar-aprel

 Boshqa korxonalar



 xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,8 %ni tashkil etdi. Toshkent viloyati bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni 1360 tani tashkil etadi, shundan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarayotgan 765 ta korxonalar mavjud.



**TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**

**2020-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha ishlab
chiqarilgan sanoat mahsulotlari**

	2020-yil yanvar-aprel mlrd. so'm	2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, %
Toshkent viloyati	17 417,9	96,1
<i>Shaharlar:</i>		
Nurafshon	257,1	46,1
Olmaliq	6 789,8	103,3
Angren	1 373,7	101,0
Bekobod	2 146,2	91,1
Ohangaron	772,5	104,1
Chirchiq	1 365,0	95,5
Yangiyo'l	165,2	82,8
<i>Tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	202,3	117,1
Ohangaron	88,7	72,5
Bekobod	102,7	100,1
Bo'stonliq	357,2	93,7
Bo'ka	33,6	47,6
Quy Chirchiq	122,9	109,1
Zangiota	1 276,8	93,6
Yuqori Chirchiq	320,2	80,5
Qibray	1 118,3	102,2
Parkent	122,9	109,1
Pskent	88,0	95,9
O'rta Chirchiq	138,1	111,6
Chinoz	111,2	67,2
Yangiyo'l	243,3	87,3
Toshkent	245,8	108,1

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)**

Sanoat mahsulotlari	o'lchov birligi	2020-yil yanvar-aprel	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
---------------------	-----------------	-----------------------	--

Qayta ishlash sanoati

Tarkibida ikkita ta'minlovchi element–azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	ming tonna	73,8	75,5
Aroq	ming l. 100% spirt	3 997,9	87,6
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	ming l. 100% spirt	23,1	144,6
Uzum vinosi tabiiy	ming l.	588,9	44,4
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	ming l.	30 636,9	111,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni	tn.	118 221,4	112,3
O'simlik yog'i (tozalangan)	tn.	2 540,	68,0



**Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari
(qayta ishlash sanoati)**

Sanoat mahsulotlari	o'lchov birligi	2020-yil yanvar-aprel	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
---------------------	-----------------	-----------------------	--

Qayta ishlash sanoati

Paxta tolasi	ming tn.	9,9	107,2
Paxta chigiti	ming tn.	16,7	111,1
Paxta tiviti (lint)	tn.	916,0	103,7


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Sanoat mahsulotlari	o'lchov birligi	2020-yil yanvar-aprel	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
---------------------	-----------------	-----------------------	--

Elektr energiya	mln.kvt/s	5 580,5	94,3
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	ming gkal.	1 595,1	110,9


2020-yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 39,0 % ulushini), Bekobod shahar (12,3 %), Angren shahar (7,9 %), Chirchiq shahar (7,8 %), Zangiota tumani (7,3 %), Qibray tuman (6,4 %), hissasiga to'g'ri kelmoqda.



2020-yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar va maxalliy ahamiyatga ega korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da


Hududlar kesimida Davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ishlab chiqarishdagi ulushlari Olmaliq (99,0 %), Bekobod (98,1 %), Nurafshon (82,5 %) va Chirchiq (63,3 %) shaharlariga to'g'ri keladi.



Davlat ulushi eng kichik ulush Zangiota (0,1 %), Piskent (0,6 %), Toshkent (1,3 %) Quyichirchiq (4,2 %) tumanlarida kuzatildi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning viloyat darajasi (5 911,0 ming so'm), Olmaliq shahrida (51 702,4 ming so'm), Bekobod shahrida (22 364,3 ming so'm), Ohangaron shahrida (20 364,3 ming so'm) va Chirchiq (8 670,0 ming so'm) shahrida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Aholi jon boshiga xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi viloyat darajasi 948,5 ming so'm bo'lgani holda Ohangaron shahrida 7 813,3 ming so'mni, Zangiota tumanida 1 955,0 ming so'mni, Qibray tumanida 1 480,3 ming so'mni, Yuqori Chirchiq tumanida 1 234,0 ming so'mni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**


	mlrd.so'm	Jami sanoatga nisbatan ulushi, %	2019 yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, %
Toshkent viloyati	2 794,9	16,0	101,8
Shaharlar:			
Nurafshon	29,4	11,4	166,0
Olmaliq	43,4	0,6	71,3
Angren	231,6	16,9	136,7
Bekobod	54,9	2,6	139,6
Ohangaron	297,0	38,4	162,6
Chirchiq	285,7	20,9	105,7
Yangiyo'l	69,9	42,3	81,4
Tumanlar:			
Oqqo'rg'on	132,8	65,6	127,8
Ohangaron	37,2	41,9	96,5
Bekobod	33,1	32,3	90,4
Bo'stonliq	121,2	33,9	97,2
Bo'ka	26,0	77,5	63,9
Zangiota	386,6	30,3	79,7
Yuqori Chirchiq	167,4	52,3	83,7
Quyi Chirchiq	67,1	54,6	181,7
Qibray	297,0	26,6	126,4
Parkent	65,1	73,9	98,7
Piskent	90,2	65,3	121,5
O'rta Chirchiq	63,4	57,0	63,0
Chinoz	71,8	72,3	95,8
Yangiyo'l	85,0	35,0	72,7
Toshkent	139,0	56,6	75,7

2020-yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha
yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat
mahsulotlarining ishlab chiqarishdagi ulushi, (%da)



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bo'ka tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Quyi Chirchiq tumani (95,5 %), Parkent (84,8 %) va Toshkent (68,6 %). Shu bilan birga, eng kichk ulush Olmaliq shahri (0,9 %), Bekobod shahri (1,8 %), Angren shahri (10,2 %), Chirchiq (15,0 %) shaharlarida kuzatildi.


Toshkent viloyati bo'yicha 2020-yil yanvar-aprel oylarida jami ro'yxatdan o'tgan sanoat korxonalarini soni, birlikda



Toshkent viloyati bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan sanoat korxonalar soni 8 923 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (19,1 %) ga oshgan, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar soni 7 705 ta, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (20,3 %) ga oshgan, faoliyatini vaqtincha to'xtatgan sanoat korxonalar soni 1 218 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (12,4 %) ga oshgan, yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni 463 ta, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (43,5 %) ga kamaygan, faoliyati to'xtatilgan sanoat korxonalar soni 49 ta, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (16,9 %) kamaygan.

Toshkent viloyati hududlar bo'yicha 2020 yil yanvar-aprel oylarida jami ro'yxatdan o'tgan sanoat korxonalari soni

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan eng ko'p sanoat korxonalari Zangiota (1 329 ta bundan 1 151 ta faoliyat ko'rsatadi), Qibray (861 ta bundan 718 ta faoliyat ko'rsatadi), Toshkent (783 ta bundan 659 ta faoliyat ko'rsatadi) tumanlariga to'g'ri keladi.



Eng kam sanoat korxonalari Bekobod (183 ta, bundan 159 ta faoliyat ko'rsatadi), Bo'ka (194 ta, bundan 117 ta faoliyat ko'rsatadi) tumanlariga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi

*R.Avliyakulova
(71) 230 86 66*